

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SAGATOVA ZARIMA BAXTIYAROVNA

**INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA ZONIM KOMPONENTLI
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR: ANTROPOSENTRIK NUQTAYI NAZAR**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Urganch – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Sagatova Zarima Baxtiyarovna

Ingliz va qoraqalpoq tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklar:
antroposentrik nuqtayi nazar3

Сагатова Зарима Бахтияровна

Фразеологические единицы с компонентом – зоонимом в английском и
каракалпакском языках: антропоцентрический аспект.....26

Sagatova Zarima Baxtiyarovna

Phraseological units with components of zoonyms in English and Karakalpak
languages: anthropocentric aspect51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SAGATOVA ZARIMA BAXTIYAROVNA

**INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA ZONIM KOMPONENTLI
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR: ANTROPOSENTRIK NUQTAYI NAZAR**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Urganch – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3562 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tleumuratov Genjemurat

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Alniyazov Aytmurat Ismilovich

filoloifiya fanlari doktori, professor

Yuldashev Doniyor Taxirovich

filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Ajiniyoz nomidagi Nukus pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « ____ » _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « ____ » _____ da tarqatildi.
(2024-yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

B.Abdullayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi vazifasini bajaruvchi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

S.S.Atajanov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.D.O‘razboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til, nutq va tafakkur birligini namoyon qiladigan frazeologik birikmalar tabiati, ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda muayyan til lugʻatlarida izohlanish tamoyillarini ochib berishga yoʻnaltirilgan amaliy ishlar ustivor ahamiyatga ega. Bu borada muayyan xalq maʼnaviy merosi zahirasi tashkil etadigan frazemalarning lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlarini yoritish, ulardagi soʻz birikuvini transformatsiyasi va uslubiy maʼnolar taraqqiyotini bir-biridan farqlash, lisoniy munosabatlarda aks etadigan psixologik, fiziologik, madaniy-maʼrifiy hamda lingvokulturologik tajribani umumlashtirish ushbu nazariy taʼlimotning istiqbolli yoʻnalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Bugungi kunda frazeologik birliklarning turli tillarda qoʻllanish imkoniyatlari, ifodalilik darajasini chogʻishtirma aspektida antroposentrik nuqtayi nazardan oʻrganish tilshunoslik fani uchun dolzarb sanaladi.

Dunyo tilshunosligida XX asrning 70-yillaridan frazeologiya nazariyasiga tizimli yondashuv boshlangan va bu mavzuda keng koʻlamli ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga kelgan. Ularda frazema tarkibini qiyosiy-tipologik oʻrganish va turli tillar frazeologik tizimining boy funksional va kognitiv imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, frazemalarning yangi tadqiqot usullarini ishlab chiqish, frazeologizatsiya jarayonini funksional jihatdan yoritish ustivor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda ushbu hodisani zamonaviy paradigmalar asosida tahlil qilish kun tartibiga chiqdi. Shuningdek, zamonaviy lingvistikada frazeologik birliklarning koʻpgina jihatlari turlicha yondashuvlar asosida tadqiq qilinishi nafaqat til va nutq birliklarining oʻziga xos jihatlari ochishga, balki frazema shakli va mazmun uygʻunligi insonning ichki va tashqi dunyosini, uning xatti-harakatlarini, odamlarning jamiyatdagi munosabatlarini tushunishning asosiy mexanizmlarini aniqlashga yordam berdi. Bunda, albatta, frazemalar tarkibidagi zooleksemalarning lingvistik oʻzgachaliklarida namoyon boʻladigan antroposentrik xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq tilshunosligida ham frazeologik va paremiologik birliklarining nazariy asoslari, ularni tadqiq etishning kognitiv va lingvomadaniy jihatlari, shuningdek, zoonimlar, zookomponentlarning lingvistik oʻziga xos xususiyatlari tahlili borasida ancha ilmiy-amaliy ishlar yaratilgan, lugʻatlar tuzilgan. Lekin bu ishlarning aksariyatida qoraqalpoq tili frazemalarining shakllanishi va qoʻllanilishi masalalariga toʻxtab oʻtilgan, xolos. Bu borada endilikda geterogen, tipologik va genetik jihatdan bir-biriga bogʻliq boʻlmagan ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarni chogʻishtirma aspektida kognitiv hamda lingvomadaniy tahlil qilish zarurati mavjud. Ushbu tadqiqot esa ayni zarurat sababidan yuzaga kelgani bilan, shuningdek, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning farmonida belgilangan “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy taʼlimning ilgʻor standartlarini Respublikamiz taʼlim muassasalariga joriy etish, yaʼni oʻquv

dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”¹ vazifasining ijrosini ta‘minlashdagi o‘rni bilan muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasining 2017–2021-yillardagi beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida o‘tgan asrdan beri til birliklarining kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari anchayin qiziqish uyg‘otib, antroposentrik obrazli iboralar tadqiqotchilarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Jumladan, D.A.Tishkina ingliz va rus tillarida zookomponentli frazemalarni qiyosiy tahlil qilish² orqali ikki til turg‘un iboralarini o‘xshashlik va farqlarini ochib bergan bo‘lsa, L.R.Sakayeva o‘z tadqiqotlari³da antroposentrik paradigma asosida rus, ingliz, tatar va tojik tillaridagi frazemalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirib, ushbu to‘rt tildagi frazeologik birliklarning tarkibiy, grammatik va semantik xususiyatlarini o‘rgangan. Ingliz tadqiqotchilari E.Milburn va T.Warren hayvon nomlar bilan bog‘liq frazemalarni tahlil qilib, ularning to‘g‘ri va obrazli ma‘nolarini solishtirishgan⁴.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni / Xalq so‘zi, 09.10.2019. – № 209 (7439) <https://lex.uz/docs/-4545884>

² Тишкина Д.А. Фразеологические единицы с компонентом-зоонимом в английском и русском языках: сопоставительный анализ: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2008. – 219 с.

³ Сакаева Л.Р. Сопоставительный анализ фразеологических единиц антропоцентрической направленности (на материале русского, английского, татарского и таджикского языков): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Казань, 2008. – 240 с.

⁴ Milburn Evelyn, Warren Tessa. Idioms shows effects of meaning relatedness and dominance similar to those seen for ambiguous words// psychonomic bulletin and review. – Springer, 2019. – Pp.591-598.

Til sathlari va birliklarni tadqiq etishning kognitiv va lingvomadaniy jihatlari D.U.Ashurova, T.A.Bushuy, A.E.Mamatov, G.S.Nasrullayeva, Sh.S.Safarov, D.S.Xudoybergenova, D.T.Yo‘ldoshev, Sh.Abdinazimov va X.E.Tolibayev, B.T.Yusupova, G.B.Aynazarova, G.K.Kidirbayeva va boshqa mahalliy tilshunos olimlarning ilmiy ishlarida ham qayd etilgan⁵. Qoraqalpoq tilining frazeologik va paremiologik birliklari J.Eshbayev, S.T.Naurizbayeva, D.S.Nasirov, A.Bekbergenov, Q.X.Jarimbetov, K.A.Paxratdinov, K.I.Bekniyazov, A.K.Pirniyazova, K.M.Sarsenbayev kabi taniqli tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan, ularning ko‘pchiligi o‘z mavzulari doirasida tegishli lug‘atlarni tuzishgan⁶.

Zoonimlar, zookomponentlarning lingvistik o‘ziga xos xususiyatlari mamlakatimiz olimlari tomonidan ham birmuncha o‘rganilgan. Xususan, G.E.Xakimova ingliz tilida zookomponentli frazeologik birliklarning struktur va semantik xususiyatlarini⁷, N.R.Nishonova o‘zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalarni⁸, S.B.Abdullayeva insonni xarakterlashda zookomponentli frazeologik birliklardagi lingvopragmatik xususiyatlarni (ingliz va o‘zbek tillari misolida)⁹, A.A.Xudaybergenov ingliz va qoraqalpoq tillarida madaniyatlararo muloqotda inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning o‘ziga xos xususiyatlarini¹⁰, A.K.Pirniyazova qoraqalpoq tilining frazeologik sistemasi va uning stilistik imkoniyatlarini o‘rgangan va tahlil qilgan¹¹. Bulardan tashqari, S.J.Shinnazarova qoraqalpoq tilidagi ba’zi qush atamalari bilan bog‘liq frazeologizmlarni o‘rganib chiqqan¹². Biroq bir-biriga qardosh bo‘lmagan, har xil tuzimga mansub ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarining yaxlit qatlami hali

⁵ Ashurova D.U. O‘zbekistonda kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi // Xorijiy filologiya. №3. – Samarqand, SamDChTI, 2016. – B.54-60.; Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // <https://cyberleninka.ru>; Mamatov A.E. Frazeologizmlar yasalishining nazariy asoslari. – Toshkent, 1997. – 134 b.; Nasrullaeva G.S. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. falsafa dokt. ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2019. – 48 b.; Сафаров Ш. Когнитивно-интерактивные функции метафоры // Мир духовной культуры человечества: язык, литература, искусство. – Самарканд, 2006. – С.82-85; Xudoybergenova D.S. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, Fan, 2013. – 136 b.; Yo‘ldoshev D.T. Generality of human thinking in antroponyms // Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe (East European Scientific Journal). №10(62). – Polsha: Varshava, 2020. – Pp.44-47; Abdinazimov Sh., Tolibaev X.E. Lingvokulturologiya. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020. – 160 b.; Yusupova B.T. Qaraqalpaq tiliniñ frazeologiyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2020. – 241 b.; Aynazarova G.B. Qaraqalpaq tilinde teñles eki komponentli frazeologizmler. – Nókis, 2005. – 117 b.; Kidirbaeva G.K. “Man” – “adam” konseptosferasi birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida): Filol. fan. falsafa dokt. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 56 b.

⁶ Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлиги. – Нөкіс, 1985. – 157 б.; Наурызбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. – Ташкент: Фан, 1972. – 141 с.; Насыров Д.С., Бекбергенов А., Жәрімбетов Қ.А. Русша-қарақалпақша лингвистикалық терминлер сөзлиги. – Нөкіс: Билим, 1992. – 229 б.; Пахратдинов Қ.А, Бекниязов Қ.И. Қарақалпақ тилинің фразеологизмлер сөзлиги. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2018. – 159 б.; Пирниязова А.К, Сарсенбаев К.М. М.Нызанов шығармаларының фразеологизмлер сөзлиги. – Нөкіс, 2019. – 156 б.

⁷ Xakimova G.E. Zoonim komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari (ingliz tili materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2008. – 145 b.

⁸ Nishonova N.R. O‘zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2000. – 120 b.

⁹ Abdullayeva S.B. Insonni xarakterlashda zoonim komponentli frazeologik birliklardagi lingvopragmatik xususiyatlar (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. fals. dokt. ...diss. – Samarqand, 2022. – 148 b.

¹⁰ Xudaybergenov A.A. Madaniyatlararo muloqotda inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida): Filol. fan. fals. dokt. ...diss. – Nukus, 2022. – 130 b.

¹¹ Пирниязова А.К. Қарақалпақ тили фразеологиялық системасы хэм оның стилистикалық имканиятлары: Филол. фан. док. (DSc) ...дисс. – Нөкіс, 2020. – 250 б.

¹² Shinnazarova S. J. Tilimizdegi qus atamalarina baylanish ayırım frazeologizmler // Qaraqalpaq tili frazeologiyasınıñ aktual máseleleri. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2011. – B.94.

maxsus chog‘ishtirma aspektda tadqiq qilinmagan. Mazkur ishimiz zookomponentli frazeologik birliklarni tavsiflash va tizimlashtirish asosida ingliz va qoraqalpoq frazeologiyasining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan dastlabki tajribadir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi antroposentrik jihatdan ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarning kognitiv va lingvomadaniy tabiatini tavsiflash, ularning tipologik o‘xshashlik va farqlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yagona tadqiqot usuli va lingvistik terminologiyadan foydalangan holda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarni aniqlash;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi zookomponentli frazeologik birliklarning tarkibiy-grammatik va semantik tasnifini shakllantirish;

frazeologizatsiya jarayonini lingvomadaniy va kognitiv aspektda tahlil qilish;

ingliz va qoraqalpoq tillarining frazemalari korpusini shakllantirishda “zooleksmalar” leksik-semantik guruhining rolini aniqlash;

o‘rganilayotgan tushunchalarning lingvistik konseptual xususiyatlarini aniqlash hamda ularning ingliz va qoraqalpoq tillarida tizimli tavsifini amalga oshirish;

ingliz va qoraqalpoq tillarining frazeologik vositalari yordamida yuzaga keluvchi konseptlar va ularda umuminsoniy va milliy xususiyatlarning namoyon bo‘lishini yoritish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va qoraqalpoq tillarining lug‘atlari va ba’zi badiiy adabiyotlaridagi zookomponentli frazeologik birliklar olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va qoraqalpoq tillarida zookomponentli frazeologik birliklarning tarkibiy, kognitiv, lingvomadaniy, kvalitatif va kvantitativ xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflovchi-analitik, qiyosiy-chog‘ishtirma, kontrastiv, statistik va kulturologik tahlil hamda modellashtirish usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazemalar muayyan hodisa, predmet nominatsiyasini va uning mazmunini tashkil etuvchi ma’lumotlarni ifodalagani sababli ularda ifodalangan ongning murakkab diskret birliklari ongda lokalizatsiya qilinishi, ular yordamida insonning fikrlash jarayoni amalga oshirilishi hamda bu konseptlar ham inson bilimlarini saqlash birliklari vazifasini bajarishi kabi kognitiv xususiyatlari ochib berilgan;

zookomponentli frazemalardagi ma’lumotlar majoziy asosning madaniyat bilan bog‘liqligini aks ettiruvchi konnotatsiyalarda gavdalangani uchun so‘zlashuvchilarning milliy madaniyatning muayyan standarti, stereotipi, konsepti

haqidagi g'oyalarida namoyon bo'lishi kabi lingvomadaniy farqli jihatlari yoritilgan;

chog'ishtirilayotgan tillardagi tarkibiy-grammatik qurilish farqliligi sababli substantiv, predikativ, adverbial, adyektiv va his-hayajonni ifodalovchi zookomponentli frazemalardan ingliz tilida substantiv, qoraqalpoq tilida esa predikativ ko'rinishlar ko'pligi; his-hayajonni ifodalovchilari har ikkala tilda juda kam miqdorda ekanligi asoslangan;

chog'ishtirilayotgan tillarining zooleksemali frazemalaridagi milliy o'ziga xos (farqlanuvchi) kognitiv modellar odamlarning yashash sharoitlari, tarixi, geografik muhiti, ijtimoiy tuzilishi, madaniyati, urf-odatlar bilan va bir xil (o'xshash) kognitiv modellari tillararo ekvivalentlarning mavjudligi bilan izohlanishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarning antroposentrik tahlili yuzasidan chiqarilgan xulosa va natijalar hamda ishda foydalanilgan lisoniy materiallar tahlili tilshunoslik, xususan, qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi, qiyosiy tipologiya, ingliz tili stilistikasi fanlarini yangi ilmiy nazariy tushunchalar bilan boyitishi, bunday frazemalarni lingvistik, kognitiv va lingvomadaniy tahlil qilishning nazariy asoslari har ikkala tildagi iboralarni tadqiq qilishni yangi ilmiy qarashlar bilan rivojlantirishiga xizmat qilishi asoslangan;

ingliz va qoraqalpoq tilshunosligidagi mavjud frazeologik birliklarni yuzaga keltiruvchi omillar aniqlanib, ushbu tillardagi zookomponentli frazemalarning tarkibiy-grammatik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish har ikkala til stilistikasi – uslubiyatini takomillashtirish va yangi, mukammallashtirilgan izohli frazeologik lug'atini yaratishda qo'shimcha material bo'la olishi dalillangan;

chog'ishtirilayotgan tillardagi zookomponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatdan o'xshash va farqli tomonlarining aniqlanishi natijasida qo'lga kiritilgan ilmiy nazariy xulosalari umumiy tilshunoslik, leksikologiya, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga xizmat qilishi; bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarni yozishda, ikki va ko'p tilli lug'atlar tuzishda hamda bo'lajak mutaxassislarining ingliz va qoraqalpoq tillari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni boyitishda ilmiy asos vazifasini o'tashi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarni lingvistik, kognitiv va lingvomadaniy tadqiqini belgilashda, nazariy ma'lumotlarni bayon etishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, ingliz va qoraqalpoq tillarida tahlilga tortilgan faktik materiallar mukammal zamonaviy metodlar asosida tasnif qilinib, ishonchli nazariy manbalar va lingvistikaning zamonaviy ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda tahlil hamda talqin qilinganligi; dissertatsiya ishi bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishining nazariy jihatlarga muvofiqligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklar tahliliga doir mavjud nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi; chogʻishtirilayotgan tillardagi ushbu tip frazemalardagi semantik, tarkibiy-grammatik, lingvomadaniy, kvalitatif va kvantitativ oʻziga xosliklari, bunday frazeologik birliklarni yuzaga keltiruvchi omillar, har ikkala tildagi zookomponentli substantiv, predikativ, adverbial va adyektiv frazemalarning oʻxshash hamda farqli jihatlarini aniqlashda nazariy asos vazifasini oʻtashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarning antroposentrik tahlili ushbu tillarning milliy-madaniy xususiyatlarini oʻzida aks ettirgan ikki tilli izohli frazeologik lugʻatni tuzishdagi hamda oliy oʻquv yurti filologiya yoʻnalishi, ayniqsa, chet tillari boʻlimi oʻquv rejasidagi qiyosiy tilshunoslik, tilshunoslikka kirish, leksikologiya va stilistika, lingvokulturologiya, diskurs matn, tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlaridan maʼruza, seminar mashgʻulotlari hamda maxsus kurslarni tashkil qilish hamda ularga oid oʻquv qoʻllanmalarini takomillashtirishdagi samaradorligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarining antroposentrik paradigma asosidagi tadqiqi yuzasidan olingan natijalar asosida:

zookomponentli frazemalardagi maʼlumotlar majoziy asosning madaniyat bilan bogʻliqlikda gavdalanishi, soʻzlashuvchilarning milliy madaniyatning muayyan standarti, stereotipi, konsepti haqidagi gʻoyalarida namoyon boʻlishi kabi farqli lingvomadaniy jihatlariga oid xulosalaridan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2023-yil 26-iyuldagi 299/1-son maʼlumotnomasi). Natijada tadqiqotchining ilmiy-nazariy fikr va maʼlumotlari qoraqalpoq tilidagi zooleksemani frazemalarning milliy oʻziga xos kognitiv modellarni izohlashda nazariy asos sifatida xizmat qilgan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazemalarda ifodalangan ongning murakkab diskret birliklari yordamida insonning fikrlash jarayoni amalga oshirilishi hamda bu konseptlar ham inson bilimlarini saqlashi kabi kognitiv xususiyatlari yuzasidan olingan natija hamda xulosalaridan Qoraqalpogʻiston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida ingliz va qoraqalpoq xalqlar ogʻzaki va tarixiy yozma ijodi, asosan, koʻrgazma va ekskurs jarayonlarida, muzeyga tashrif buyurgan mehmonlar bilan muloqotni shakllantirishda chogʻishtirilayotgan tillardagi ushbu tip frazeologizmlarning antroposentrik jihatdan oʻxshash va farqli tomonlarini ochib berishda foydalanilgan (Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 25-iyuldagi 13-0519-07/430-son maʼlumotnomasi). Natijada ingliz va qoraqalpoq tillaridagi insonning ijobiy va salbiy sifatlarini tavsiflovchi frazemalarda oʻxshashlik hamda farqlar ijtimoiy-

tarixiy o'zgarishlar, har bir xalqning yashash sharoitlari, urf-odatlari, kundalik hayoti bilan bog'liqligi; zookomponentli frazeologik birliklar ham ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarni o'zida aks ettirishi va til birliklaridagi assotsiativ aloqalarni isbotlashga xizmat qilgan;

chog'ishtirilayotgan tillardagi substantiv, predikativ, adverbial, adyektiv va his-hayajonni ifodalovchi zookomponentli frazemalar tahliliga oid xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining "Tilge itibar – elge itibar" ko'rsatuvida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-iyundagi 05-22/319-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va qoraqalpoq tillaridagi bunday zookomponentli frazeologizmlarni aholiga, asosan, o'quvchi yoshlarga, talabalarga, olimlarga va ilmiy izlanuvchilarga targ'ib qilish imkoniyati yaratilgan hamda teleko'rsatuv yangi materiallar, ilmiy asoslangan dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, ucta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning asosiy matni 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot rejalarga muvofiqligi aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqot usullari ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan, amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli frazeologik birliklarni lingvistik, kognitiv va lingvomadaniy ta'riflashning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobining 1-bo'limda qo'yilgan muammoning o'rganilish tarixi yoritilgan.

Har qanday tilning, shu jumladan, ingliz va qoraqalpoq tillarining so'z boyligining hozirgi holati uzoq tarixiy rivojlanish mahsulidir. Dunyodagi obyektiv ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar, yashash sharoitlari, urf-odatlar, kundalik hayot til materialida ma'lum bir iz qoldiradi, albatta. Frazeologiya har bir til boyligining

maxsus tarkibiy qismi bo‘lib, unda boshqa sohalarga qaraganda tilning o‘ziga xosligi alohida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun turli tillar frazeologik birikmalarini qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida zamonaviy paradigmalarda o‘rganish ko‘plab olimlar uchun katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Bunday tadqiqotlarda frazeologik ma‘noning alohida jihatlari, ularni nutqda amalga oshirish usullari, tarkibiy va grammatik xususiyatlari va alohida tillarning frazeologik birlik(keyingi o‘rinlarda FB)larining grammatik tarkibining xususiyatlari taqqoslanadi.

Akademik V.V.Vinogradov frazeologiyani lingvistik fan sifatida ajratib ko‘rsatgan¹³ bo‘lsa, uning bu nazariy g‘oyalari keyinchalik MDH davlatlari va xorijlik tilshunoslar tomonidan davom ettirildi. Jumladan, N.N.Amosova¹⁴ va A.V.Kuninlar¹⁵ rus frazeologiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shishgan bo‘lsa, fransuz frazeologiyasi rivojlanishiga esa Sh.Balli¹⁶ning g‘oyalari sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. XX asrning 70-yillarning oxiridan boshlab frazeologiya muammolariga tizimli yondashuv an‘anasiga aylandi hamda FBlarining tarkibiy va semantik tarkibini tavsiflash bilan bog‘liq masalalar kun tartibiga chiqdi. O‘tgan asrning 80-yillari til faktlarini tizim darajasida tahlil qilish g‘oyalari asosida frazeologiya obyektini o‘rganish usullarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Frazeologik tarkibni qiyosiy-tipologik o‘rganishga va lug‘atlarda FBlarining tavsifini rivojlantirishga, shuningdek, frazeologizmlarning leksemalarga mos kelishi haqidagi fan ekanligi bilan bog‘liq yangi tadqiqot usullarini ishlab chiqishga, frazeologik jarayonlarni ularning funksional jihatdan o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi.

Ingliz tilshunosligida idiomatika muammolarining ilmiy rivojlanishi faqat ba‘zi «iboralar» lug‘atlari va tilga oid amaliy qo‘llanmalarining muqaddimasida keltirilgan qisqacha mulohazalar bilan kifoyalanadi. Ingliz va Amerika lingvistikasida frazeologiya nazariyasiga bag‘ishlangan bir nechtagina asar mavjud, hatto A.Makkey¹⁷, U.Veynreyx¹⁸, L.P.Smit¹⁹ kabi yetakchi tilshunoslar asarlarida ham FBlarni ajratishning ilmiy asoslangan mezonlari, FB va so‘zlarning nisbati, frazeologiyada sistemlilik, frazeologik variativlik, frazeologizmlarning yasalishi, frazeologiyani o‘rganish usuli kabi mavzularga yetarlicha e‘tibor qaratilmaydi. Buni ingliz tilshunosligida ushbu soha uchun maxsus nom mavjud emasligidan ham anglasa bo‘ladi.

Qoraqalpoq tili frazeologiyasini o‘rganish Q.Ayimbetov²⁰ nomi bilan bog‘liq. U qoraqalpoq tilshunosligida birinchi bo‘lib «frazeologiya» atamasini qo‘llagan

¹³ Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: избранные труды. – М.: Наука, 1977. – 312 с.

¹⁴ Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1963. – 267 с.

¹⁵ Кунин А.В. Основные понятия английской фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1964. – 47 с.; Английская фразеология. – М.: Высш. шк., 1970. – 344 с.; Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высш. шк., 1986. – 336 с.; Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высш. шк., Дубна: «Феникс», 1996 – 381 с.; Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высш. шк., Дубна: «Феникс», 2005. – 488 с.

¹⁶ Балли Шарль. Французская стилистика / перевод К.А.Долинина; Под ред. Е.Г.Эткинда. – Москва, 1961. – 394 с.

¹⁷ Makkaï A. Idiom Structure in English – The Hague, 1987. – P.371.

¹⁸ Weinreich U. Problems in the Analysis of Idioms: Substance and Structure of Language. – University of California Press, Berkley and Los Angeles, 1984. – P. 442.

¹⁹ Смит Л.П. Фразеология английского языка. – М., 1998. – 208 с.

²⁰ Ayimbetov Q. Qaraqalpaq folklori. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1960. – 92 b.

tilshunosdir. J.Eshbayevning «Qaraqalpaq tiliniń qısqa frazeologiyalıq sózligi» lug‘ati²¹da qaraqalpoq frazeologiyasining nazariyasi va tarixi tahlil qilingan, FBlarining tasnifi beriladi, ularning leksik tarkibi va semantik xususiyatlari aniqlanadi. Ushbu lug‘atda qaraqalpoq tilidagi FBlarining tarkibiy va grammatik xususiyatlari haqida nazariy fikrlar ham mavjud. Aytish mumkinki, J.Eshbayevning asarlari tadqiqotchilarga qaraqalpoq tili frazeologiyasini yanada chuqurroq o‘rganish uchun nazariy asos va ilhom manbayi bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, E.Berdimuratov, S.Nauruzbaeva, G.Aynazarova, B.Yusupova, A.Pirniyazova va boshqalar²²ning ishlari ana shu nazariy asos negizida yuzaga keldi.

Qiyosiy lingvistik tadqiqotlar o‘tkazish g‘oyasi I.A.Boduen de Kortunega tegishlidir. Biroq tom ma‘nodagi qiyosiy tilshunoslik XX asrning 50-60-yillarida shakllangan bo‘lib, barcha tillarning semantik-mazmuniy tomonlarining fundamental ekvivalentligi g‘oyasi shaklida ilmiy-nazariy va uslubiy asosga ega bo‘ldi. Hozirgi vaqtda ham qiyosiy usul keng qo‘llanilmoqda va tilshunoslikda eng yetakchi hamda istiqbolli usullardan biri hisoblanadi.

Bobning 2-bo‘limida “Zookomponentli FBlarni o‘rganishning kognitiv jihatlari” tahlilga tortilgan. Ma‘lumki, erkin birikma va FBning o‘xshashligi faqat rasmiydir – ikkalasi ham so‘zlardan iborat, birinchisi to‘liq ma‘noli, turli xil ma‘nolarga ega; ikkinchisi tarkibida desemantiklashtirilgan so‘zlar mavjud bo‘lib, ular har doim ifodali va ba‘zan metaforik majoziy ma‘no yaratadi. Kognitiv tilshunoslikda mutaxassislarning diqqati tilning anglashdagi shart va vosita sifatidagi rolini ochib berishga qaratiladi. Aynan til inson ongi va tafakkuri haqida to‘liq va adekvat tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi. FBlarining kognitiv tahlili nafaqat muayyan hodisa, predmet nominatsiyasini aniqlaydi, balki FBning mazmunini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni ochib beradi, ular orasidagi munosabatni ifodalaydi. Kognitiv tahlil bizga dunyoning bo‘laklardagi va ularning milliy qarashlardagi ma‘nolarini kattaroq bilim bloklari periferiyasiga kiritish mumkin bo‘lgan alohida bloklar sifatida taqdim etish imkonini beradi. Shunday qilib, alohida frazeologik-semantik sohalarni tahlil qilish va ular doirasidagi modellarni tanlash dunyo qismlanishining milliy xususiyatlarini ochishga, har bir FBda tafakkurning namoyon bo‘lishini yoritishga xizmat qiladi.

Kognitiv tilshunoslik haqidagi, xususan, FBlar milliy o‘ziga xosligining kognitiv jihatlari haqidagi asosiy qarashlar N.D.Arutyunova, A.Vejbitskaya, D.O.Dobrovolskiy, E.S.Kubryakova, J.Lakoff, I.A.Sternin; D.U.Ashurova, Sh.S.Safarov, G.S.Nasrullayeva, Sh.Abdinazimov, G.K.Kıdırbaeva, A.Pirniyazova²³ kabi tadqiqotchilarning asarlarida ko‘rib chiqilgan. Bo‘limda ana

²¹ Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1985. – 159 b.

²² Berdimuratov E.B. Házirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya. – Nókis: Bilim, 1994.; Наурузбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. – Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1972.; Аунazarova G. Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmler. – Nókis, 2005.; Yusupova B. Qaraqalpaq tiliniń frazeologiyası. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014. – 241 b.; Pirniyazova A.K. Qaraqalpaq tili frazeologialıq sisteması va onıń stilistikalıq imkaniyatları. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020. – 176 b.

²³ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С.896.; Вежицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – С.287.; Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии // Вопросы языкознания. – М., 1998. – №6. – С.48-57.; Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика – психология – когнитивная наука // Вопросы языкознания, 1994. – №4. – С.34-46.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live

shu asarlardagi mavzuga aloqador ilmiy fikrlar tahlilga tortildi va munosabat bildirildi.

V.A.Maslovaning fikricha, konsept – ongimizning aqliy yoki aqliy resurslari birliklarini va inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilmasini tushuntirishga xizmat qiluvchi atama²⁴. Demak, kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tushuncha ongda lokalizatsiya qilinadi: konseptlar ongning murakkab diskret birliklari, ular yordamida insonning fikrlash jarayoni amalga oshiriladi. Har xil leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlar singari, FBlar frazeologik ma'nolari bilan ajralib turadi, bu uning asosiy turlarini aniqlashga imkon beradi.

Bobning 3-bo'limida "Zookomponentli FBlarni o'rganishning lingvomadaniy jihatlari" yoritilgan. Ma'lumki, lingvokulturologiya – tilshunoslikdagi antroposentrik paradigma mahsuli bo'lib, so'nggi o'n yilliklarda eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir. U fanlararo xususiyatga ega, chunki u tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan va "xalq madaniyatining tilda aks etgan va mustahkamlangan ko'rinishlarini o'rganadi"²⁵. V.N.Teliyaning fikricha, har qanday tilning frazeologik fondi "lingvomadaniy jamoa o'zining milliy o'ziga xosligini belgilaydigan oynadir"²⁶. Binobarin, aksariyat FBlar milliy madaniyatni o'zida aks ettiradi. Milliy madaniyat haqidagi ma'lumotlar dunyoni obrazli ifodalovchi FBning ichki shakli (majoziy asos)da taqdim etiladi, shuning uchun lingvokulturologiya uchun asosiy tushunchalardan biri til birliklarining, jumladan, FBlarining madaniy konnotatsiyasi hisoblanadi²⁷.

Turli tillarning frazeologiyasida lingvomadaniy yo'nalishdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ularning asosiy maqsadi FBlarining shakli va ma'nosida ifodalangan etnik madaniyat tarkibiy qismlarini aniqlashdir. Har qanday tilning frazeologiyasi milliy madaniyatning urf-odatlarini, an'analari, e'tiqodlari, til tarixi va unda so'zlashuvchi xalqlar tarixi kabi tarkibiy qismlarini ifodalovchi qimmatli lisoniy meros hisoblanadi. FBlarining milliy-madaniy o'ziga xosligi ona tilida so'zlashuvchilarning milliy madaniyatning muayyan standarti, stereotipi, konsepti haqidagi g'oyalar majmuasida yotadi. Lingvomadaniy yondashuv metodlari ingliz va qoraqalpoq tillarining zookomponentli FBlarni o'rganishning kognitiv va kontrastiv yo'nalishlarining ayrim qoidalari bilan to'ldiriladi. Ushbu yondashuvlardan sintezlagan holda foydalanish ingliz va qoraqalpoq xalqlarining

By. – University of Chicago Press, 2003 (1980.); Sternin I.A., Popova Z.D. *Cognitiv linguistics*. – Voronezh: «Izdatelstvo AST», 2007. – P. 314; Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане // Хорижий филология. №3. – Самарқанд, СамГИИЯ, 2016.; Сафаров Ш. Когнитивно-интерактивные функции метафоры// Мир духовной культуры человечества: язык, литература, искусство. – Самарқанд, 2006.; Nasrullayeva G.S. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti: Filol.fan.fal.dokt. ...diss. avtoref. – Farg'ona, 2019. – 248 b.; Abdinazimov Sh. Hayal sózi haqqında. QDU Axborotnomasi. – Nukus, 2015, №4. – 104-107 b.; Kidirbaeva G.K. "Man" – "adam" konseptosferasi birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida): Filol.fan.fal.dokt....diss. avtorefer. – Toshkent, 2017.; Pirniyazova A.K. Qaraqalpaq tili frazeologialiq sisteması va onıń stilistikalıq imkaniyatları. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020. – 176 b.

²⁴ Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – М.: Флинта: Наука, 2006. – С.42.

²⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С.9.

²⁶ Телия В.Н. Что такое фразеология? – М.: Наука, 1996. – С.9.

²⁷ Телия В.Н. Что такое фразеология. – М.: Наука, 1996. – С.9.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С.82.

lingvistik ifodasi, konseptual tuzilishi va milliy madaniyatlari o‘rtasidagi xarakterli jihatlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli FBlarning struktur-semantik xususiyatlari**” deb nomlanib, unda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli FBlarning tarkibiy-grammatik tasnifi antroposentrik paradigma asosida ishlab chiqilgan va ushbu tip frazeologizmlarning xususiyatlari tahlilga tortilgan. Jumladan, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli FBlar ularning gapdagi sintaktik vazifasiga bog‘liq holda tasniflangan:



1-rasm. Ingliz va qoraqalpoq tillarida zookomponentli FBlarning tarkibiy-grammatik xususiyatlari.

Tadqiqotning ushbu bobida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi FBlarning sinxron-qiyosiy tavsifi ishlab chiqildi. Aynan shu bobda jami ingliz tilining 485 ta, qoraqalpoq tilining 335 ta FBlari aniqlandi va tahlil qilindi. Zookomponentli ingliz FBlarning kartotekasida til birliklarining asosiy qismini substantiv FBlar tashkil etadi (41%); ikkinchi yirik turkumga predikativ FBlar (29%) kiradi; adyektiv frazeologizmlar animalistik FBlar soni bo‘yicha uchinchi o‘rinni band etadi (19%); adverbial FBlar kam ifodalangan (11%); zookomponentli his-hayajon FBlar esa ingliz tilidagi eng kichik kategoriyadir. Zookomponentli qoraqalpoq FBlarning kartotekasining katta qismini predikativ FBlar tashkil etadi (40%); substantiv FBlar (23%) va adverbial FBlar (22%) ular sonining deyarli teng nisbati bilan ifodalanadi; adyektiv FBlar kam ifodalangan (15%); qoraqalpoq tili FBlarning eng kichik kategoriyasini ham his-hayajon FBlar tashkil etadi. Tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi jadvalni keltirib o‘tamiz:

1-jadval.

Ingliz va qoraqalpoq tillarida zookomponentli FBlarning tarkibiy-grammatik xususiyatlari % hisobida			
№	Gapdagi vazifasi	Ingliz tilida	Qoraqalpoq tilida
1	Zookomponentli substantiv FB	41% <i>sheep's head;</i> <i>white elephant</i>	23% <i>tawıq kóz;</i> <i>hárreniń uyası</i>
2	Zookomponentli predikativ FB	30% <i>smell a rat;</i> <i>buy a white horse</i>	40% <i>atqa miniw;</i> <i>tayağın iyt ğayzaw;</i>

3	Zookomponentli adverbial FB	11% <i>like a hen with one chicken; in the lion's paws</i>	21% <i>ayađı kúygen tawıqtay; eshekke yasin oqıganday</i>
4	Zookomponentli adyektiv FB	19% <i>bull-necked; as briskly as a bee</i>	15% <i>iyt nesiybeli; qumırsqađa xazarı joq</i>
5	Zookomponentli his-hayajon FB	<i>Hot dog! Dog my cats!</i>	<i>julan jutqır; bóridge jem bolđır</i>

Substantiv FBlar guruhida har ikkala taqqoslanadigan tildagi til birliklarining aksariyati «sifat + ot» tuzilishiga ega: *a fighting cock* «bezori, jangchi»; *a cold fish* «bemehr, yovuz inson». Misol: «Whew», said Taverner, «he (Mr. Leonides) is a *cold fish*»²⁸; *qara (sur) julan* «makkor odam» (qora ilon); *baqıravıq túye* «qari, yetakchi, qo‘mondon» (baqiroq tuya).

Ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida ham, qoraqalpoq tilida ham birinchi komponent – sifat prepozitsiyani egallab, tobe so‘z vazifasini bajaradi. Ingliz tilining bu tuzilmalarida qoraqalpoq tilidan farqli o‘laroq, sifatlardan tashqari sifatdosh I va II ham aniqlovchi vazifasini bajara oladi: *willing horse* – «mehnat qilishni yaxshi ko‘radigan odam»; *sacred cow* – «daxlsiz shaxs».

Chog‘ishtirilganayotgan tillarda “ot (nom.) + ot (nom.)” konstruksiyasi teng ravishda ifodalanadi. Qoraqalpoq tilining zooleksemlar ishtirok etgan FBlarining kartotekasida uning bir nechta ko‘rinishlari mavjud: *ishtan biyt* «mayda, ochko‘z odam». Misol: Áy, mańlayı qara, ákemiz jalańayaq bolganı menen sendey sóksanar, sendey *ishtan biyt* bolđan joq, qara mańlay²⁹!; *qırđıy qabaq* «g‘azabnok odam». Misol: Esbergen bunnan da áygápir ashıp, túrin tútiktirip, *qırđıy qabaqlanıp*, bul da ketti³⁰. Bu yerda aniqlovchi funksiyasini birinchi komponent amalga oshiradi. Ingliz tilida shunday tuzilishga ega FBlar ancha kopchilikni tashkil qiladi: *publicity hound* «o‘zi uchun reklama yaratishni yaxshi ko‘radigan» (ommaviy it); *toad eater* «xushomadg‘oy», «laganbardor» (qurbaqa yeyuvchi) va boshqalar. Bu tip FBlarining ikkala tildagi o‘xshashligi shundaki, aniqlovchi vazifani morfologik jihatdan sifat tarzida shakllanmagan, lekin ayni paytda sifat vazifasida kelgan so‘zlar bajaradi.

Ta‘kidlash joizki, qoraqalpoq tilida ingliz tilidagi predlog-nominal konstruksiyalarning o‘xshashi yo‘q, bu esa predloglarning yo‘qligi bilan izohlanadi. O‘rin, zamon, sabab, maqsad kabi ma‘nolarning turli ma‘nolari qoraqalpoq tilida turli kelishik shakllari yoki otlarning poslelogli birikmalari orqali yetkaziladi. Ingliz tilida esa, ko‘p sonli FBlar predlogli tuzilmalar bilan ifodalanadi: *a bird in the hand* «haqiqiy, ishonchli narsa, ishonchli ish»; *an ass with two panniers* «ikki ayol bilan qo‘ltiqdashib ketayotgan erkak»; *know a hawk from a handsaw* «gap nimada

²⁸ Christie A. Crooked House. – Москва: «Декоит +», 1998. – P.168.

²⁹ Matmuratov Q. Terbenbes. – Nókis: Bilim, 2014. – B.112.

³⁰ Seytov Sh. Xalqabad (Mashaqatlı asırımlar). II kitap. – Nókis, 1981. – B.251.

ekanligini tushunmoq». Misol: [Hamlet:] «When the wind is Southerly, I know a hawk from a handsaw»³¹.

Ushbu tillardagi predikativ FBlar guruhining katta qismini uch va to'rt komponentli FBlar tashkil qiladi. Qoraqalpoq FBlarining o'ziga xos xususiyati – FBlarning barcha tarkibiy turlarida fe'ning oxirgi komponent sifatida qo'llanilishidir. Qoraqalpoq tilida “**ot+ot+fe'l**” modeli bo'yicha tuzilgan FBlar salmoqdor: *lashin iytke taslaw* – «juda qiynoqqa solmoq, azob bermoq». Misol: Eger usinnan jáne qolğa tússek, bular *lashımızdı iytke taslaydı*³²; *sirkesi suw kótermew* «hech narsaga xushi bo'lmaslik». Misol: Aynagúldiń *sirkesi suw kótermeydi*, doslari menen sóylesiwge sirá xoshı joq. Mektepke barsa bir nárese bolıp qalatuğında ishı ala quyn³³.

Ingliz tilida predikativ FBlarda fe'l doimo otdan oldin keladi, ingliz FBlari uchun konstruksiya tarkibida *one, one's, oneself, somebody, somebody's, something* kabi alternantlarning qo'llanishi ham xarakterli: *have one's head full of bees* «xayolparast bo'lmoq, ushalmas orzular bilan yugurmoq» (asalari bilan to'la boshga ega bo'lmoq); *throw somebody to the wolves* «kimnidir qurbon qilmoq» (birovni bo'rilarga tashlamoq); *make an ass of oneself* «o'zini ahmoqona holatga qo'ymoq, ahmoqlik qilmoq». Misol: «The masses feel that drunkenness, stupidity, and immorality should be their own special property, and that if anyone of us makes an ass of himself he is poaching on their preserves ...»³⁴.

Qoraqalpoq tilida zooleksemali predikativ qiyosiy tuzilmalar ancha samarali bo'lib, ularda “**ot (qiyoslama bog'lovchi) + fe'l**” umumiy tarkibiy modeli mavjud: *qorazday qishqırıw; jilanday (shayanday) shağıw*. Ushbu model qo'shimcha komponentlar (ot, sifat, ravish bilan ifodalangan) bilan ham kengaytiriladi: *túyedey jaslı bolıw, kók ğargaday kórinbew*.

Ingliz tilida predikativ qiyosiy tuzilmalar ham bitta umumiy «**fe'l + like + ot**» modeliga ega: *chatter like a magpie* «ko'p gapirmoq, javramoq»; *work like a horse* «ko'p islash». Misol: [Jimmie Langton:] I'll give you a three year's contract, I'll give you eight pounds a week and you will have to work like a horse³⁵.

Qoraqalpoq tilidagi adverbial FBlar o'rtacha miqdordagi sinfdir, ingliz tilida esa juda kam uchraydi. Qoraqalpoq va ingliz tilidagi bu FBlarning asosiy qismi turli tarkibdagi qiyosiy tuzilmalar orqali ifodalangan obrazli qiyoslashlar bilan ifodalanadi. Qiyoslash vazifasi qiyoslovchi bog'lovchi va qiyoslovchi suffikslar yordamida amalga oshiriladi: qq. tilida «*-day, -dey, -tay, -tey*»: *poshaqqa túyilgen tekedey* – «ajablanib, hayratda» (puchoqqa tuyilgan takadek). Misol: Men poshaqqa túyilgen tekedey moynımdı sozıwım menen hayranım shıǵıp qala berdim³⁶; *qanati suw bolğan súylindey* – «qayg'uli, xafa, kayfiyatsiz; holsiz, nochor. Misol: Qanati suw bolğan súylindey misal, Jasiń qaytsa párwazlap ushpaydı qıyal, Qábiriń basında bir jaqsı hayal, Jılap qalmağan soń ólgen boldıma³⁷; inglizlarda «*like, as, as ...as*».

³¹ Shakespeare W. Hamlet. – London: Penguin Books, 1994. – P.190.

³² Aytmuratov P. Bir dostıń bolsın. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020. – B.216.

³³ Esemuratova G. G.Esemuratova Shıǵarmaları. I Tom. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2013. – B.386.

³⁴ Wilde O. The picture of Dorian Gray. – Санкт Петербург: «КАРО», 2007. – С.400.

³⁵ Maugham W.S. Theatre. – Moscow: Manager, 2001. – P.304.

³⁶ Matmuratov Q. Terbenbes. – Nókis: Bilim, 2014. – B.177.

³⁷ Aytmuratov P. Bir dostıń bolsın. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020. – B.160.

Ingliz tilida adverbial FBlarning eng oddiy tarkibiy turi «**like + ot**» modeli bilan ifodalanadi: *like a bird* «bajonidil», «hech ikkilanmasdan»; *like flies* «ko‘p». Komparativ bo‘limgan xarakterdagi adverbial FBlar qiyoslanayotgan tillarda ancha kam uchraydi.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda zookomponentli adyektiv FBlar kam sonli qatlamni tashkil qiladi. Har ikki tilda ko‘rib chiqilayotgan FBlarning deyarli barcha tarkibiy modellarida taqqoslovchi suffikslar, taqqoslovchi bog‘lovchilar yoki o‘xshatish mazmunidagi so‘zlar mavjud. Qoraqalpoq tilining adyektiv komparativ FBlari tuzilishining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularning barchasi umumiy **ot + day/dey + ot** modeliga ega: *qoshqarday ul* – sog‘lom, ko‘rkam; *qumirsqaday adam* – ko‘pchilik, juda ko‘p; *tüyedey (ógizdey) bala* – katta (kichiklari orasida). Ingliz tilidagi bunday FBlarning kartotekasida yetakchi tuzilma uch komponentli “**sifat+taqqoslovchi bog‘lovchi+ot**” tuzilmasi hisoblanadi: *grave as an owl* «odamovi, ma’yus»; *(as) silly as a goose* «aqlsiz, ahmoq odam»; *(as) light as a butterfly* «bema’ni, o‘ysiz».

Ingliz tiliga «**zooleksema + sifatdosh II**» tuzilishiga ega adyektiv FBlar xos: *lion-hearted* «jasur, qo‘rqmas»; *ox-eyed* «katta ko‘zli»; *snake-headed* «g‘azablangan»; *dog tired* «qattiq charchagan». Misol: [Julia:] «Now you really must go. You’ve got a heavy day at the office tomorrow and I am *dog tired*»³⁸. Qoraqalpoq tilidagi bunday FBlarning o‘xshashi nominativ zooleksema va “-li/li” qo‘shimchasi bilan otdan yasalgan sifatdan tashkil topgan FBlardir: *iyt nesiybeli* – omadli, *iyt janli* – sabrli. Misol: Ótámbet ele de Mirzagúldiń sulıwlıǵına tásiyin qılıp turdı: “Qaraqanıń bolsın Lepes, mınawsı bala biziń apaydı jırıp jiberedi-ǵo, naǵız *iyt nesiybeli* adam-dá!”³⁹.

La’nat va afsunlarni ifodalovchi predikativ tipdagi FBlarda: *bórigе jem bolǵır; julan jutqır; iytkе talanǵır* kabilar qo‘llaniladi. Ingliz zookomponentli his-hayajon FBlar ham turli xil ifoda shakllariga ega: *dog my cats!* – «Jin ursin!»; *stiffen the crows!* – «Mana senga kerak bo‘lsa!»; *hot dog!* – «Yasha!», «Ajoyib!». Huddi ingliz tilidagi FBlarni semantikasini beruvchi FBlar qoraqalpoq tilida ham uchraydi: *Háy sen adambısań, iytpiseń; Iyttiń balası* – past, qabih, noshukur va nomussiz odam haqida.

Dissertatsiyaning “**Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli FBlarning lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi zookomponentli FBlarning lingvomadaniy xususiyatlari kvalitatif va kvantitativ jihatdan tahlil qilingan. Ma’lumki, FBlar o‘z semantikasida biror xalq madaniyati rivojlanishining uzoq tarixiy jarayonini aks ettiradi, madaniy merosni va stereotiplarni avloddan avlodga yetkazib beradi. V.N.Teliyaning fikricha, tilning frazeologik tarkibida mustahkamlangan tasvirlar tizimi dunyoqarashni kengaytirish uchun o‘ziga xos «vosita» bo‘lib xizmat qiladi va u yoki bu tarzda ma’lum bir til hamjamiyatining moddiy, ijtimoiy yoki ma’naviy madaniyati bilan bog‘liq. Shuning uchun ular madaniy, milliy an’ana va urf-odatlar to‘g‘risida guvohlik bera oladi⁴⁰.

³⁸ Maugham W.S. Ko‘rsatilgan manba. – P.304.

³⁹ Matmuratov Q. Ko‘rsatilgan manba. – B.195.

⁴⁰ Телия В.Н. Что такое фразеология? – М.: Наука, 1996. – С.215.

Ingliz va qoraqalpoq tillarining faktik materiallarini kvalitatif tahlil qilish FB'larga bo'lingan zookomponentli FB'lar yordamida insonning tashqi va ichki dunyosini konseptualizatsiyalashning quyidagi tuzilishini taqdim etadi:

Jadval 2.

Ingliz va qoraqalpoq tillarida zookomponentli FB'larning kvalitatif tahlili:			
№	Klassifikatsiyalanish guruhi	Ingliz tilida	Qoraqalpoq tilida
1	Insonning tashqi ko'rinishi:	<i>crow's foot</i>	<i>bota kóz</i>
1.1	Yuzi		
1.2	Qomati/tashqi ko'rinish	<i>rat's tail</i>	<i>julingan tawıq</i>
2	Insonning xarakter xususiyatlari	<i>work like a horse/ work like a dog</i>	<i>qumırsqaday tinbaw</i>
2.1	Tirishqoqlik, mehnatsevarlik		
2.2	Dangasalik, parazitizm	<i>a lazy sheep thinks its wool heavy</i>	<i>as kelgende attay, is kelgende iyttey</i>
2.3	Mehribonlik, rahm-shafqat	<i>can't (won't) say boo to a goose</i>	<i>shıbınğa azarı joq</i>
2.4	G'azab, shafqatsizlik, qo'pollik	<i>old cat</i>	<i>qutırğan iyttey</i>
2.5	Suhbatdoshlik	<i>let the cat out of the bag</i>	<i>gápke buzaw emiziw</i>
2.6	Kamgaplik	<i>dark horse</i>	<i>awzın buwğan ógizdey</i>
2.7	Ayyorlik	<i>sly old fox</i>	<i>sum túlki</i>
2.8	Soddalik	<i>to pluck a pigeon</i>	<i>awzınan sarısı ketpegen palapan</i>
2.9	Jasorat	<i>lion-hearted</i>	<i>arslanday aybatlı</i>
2.10	Qo'rqqoqlik	<i>pigeon livered</i>	<i>qoyan júrek</i>
2.11	Sabr	<i>the worm has turned</i>	-
2.12	O'jarlik	<i>stubborn as a mule</i>	<i>qaysar ógiz</i>
2.13	Ochko'zlik	<i>dog in the manger</i>	<i>dońızdan túk tartar</i>
2.14	Takabburlik	<i>cock-sure</i>	<i>pıshıq ta jolbarıstay keriler</i>
2.15	Muloyimlik, zaiflik	<i>Balaam's ass</i>	<i>qoyday juwas</i>
3	Insonning jismoniy holati:	<i>(as) strong as a horse</i>	<i>eshkidey qaqańlaw</i>
3.1	Kuch, salomatlik		
3.2	Zaiflik\ yomon sog'liq	<i>to be sick as a dog</i>	<i>iyttiń azabın shegiw</i>
3.3	Ochlik hissi	<i>a hungry bear does not dance</i>	<i>bóridey ash</i>
3.4	Odat	<i>to snore like a pig in the sun</i>	<i>porsıqtay uyıqlaw</i>
4	Insonning psixologik holati	<i>to kill the fatted bull</i>	

4.1	Quvonch		<i>iyessin kórgen iyttey bilǵańlaw</i>
4.2	Baxt, omad	<i>lucky dog</i>	<i>jerden jeti qoyan tapqanday</i>
4.3	Qo‘rquv	<i>to have butterflies in one's stomach</i>	<i>qasqirdı kórgen iyttey</i>
4.4	Hayrat	<i>to stare like a stuck pig</i>	<i>ańı ushqan eshkidey</i>
4.5	Xavotir, hayajon	<i>a cat on hot bricks</i>	<i>kewline qurt túskendey</i>
5	Insonning aqliy qobiliyatlari	<i>horse sense all asses wag their ears</i>	<i>tawıq miy</i>
6	Insonning turmush tarzi, xatti-harakatlarining xususiyatlari	<i>old bird</i>	<i>bazar kórgen eshki</i>
6.1	Hayotiy tajriba		
6.2	Harakatlar, xatti-harakatlar	<i>to sell the bear's skin before one has caught the bear</i>	<i>bórinıń tóli bóri bolar</i>
6.3	Ichkilikbozlik	<i>to see snakes/ cold turkey</i>	-
6.4	Taqlid	<i>copy cat</i>	<i>qus uyada kórgenin qılar</i>
7	Odamlar o‘rtasidagi munosabatlar	<i>to make somebody one's ape</i>	<i>qoyan bolıp ketiw</i>
7.1	Aldash		
7.2	Birlik	<i>birds of one feather flock together</i>	<i>ayrılǵandı ayıw jer, bólingendi bóri jer</i>
8	Jamiyatdagi mavqeyi	<i>a big fish in a little / small pond</i>	<i>baqa óz kólinde patsha</i>
9	Moliyaviy ahvol	<i>the golden calf</i>	<i>baydıń qorazıda máyek tuwar</i>
9.1	Boylik, farovonlik		
9.2	Qashshoqlik	<i>to go to the dogs</i>	<i>qaltasında iyt úriw</i>
10	Inson qobiliyatlari va ko‘nikmalari	<i>to swim like a duck</i>	<i>Quday sheberme, qurqiltay sheberme</i>
Jami soni:		634	586

Ingliz tilida qomati, boy-basti kelishganlik «oqqush» zooleksemasi bilan ifodalanadi: *(as) graceful as a swan*, qoraqalpoq tilida esa «tovus» zooleksemasi bilan ifodalanadi: *tawıstay taranǵan*. Ingliz va qoraqalpoq tillarida tasvirlarning bir-biriga mos kelish holatini ham ko‘rish mumkin: *mayǵa túsken tıshqanday – like a drowned rat /mouse* va *(as) fat as a pig – shoshqaday semiz*. Ba’zi FBlar hazil va kinoya asosida qurilgan: *qartaya bilmegen qarı eshek* – “keksalikni tan olaydigan

odam, abadiy yosh” ma’nosida (ko‘pincha yosh qizlarga qaraydigan kekxa odam haqida). Qizig‘i shundaki, qoraqalpoqlar shim kiygan ayol yoki kiyimi yarashmagan ayolni *julingan tawiq* bilan, inglizlar mutlaqo yalang‘och yoki yarim yalang‘och odamni «*jaybird*» bilan bog‘lashadi: *naked as a jaybird*.

Inson xarakteri xususiyatlari, jumladan, tirishqoqlik, mehnatsevarlik «qattiq ishlash»: *qumirsqaday tinbaw; eshektey islew; iyttey islew; work like a dog \\\ horse; work like a tiger* kabi FBlar bilan ifodalangan. Mehnatkash odamni chumoliga taqqoslash faqat qoraqalpoq tiliga xos bo‘lsa, asalari mehnatkashlik ramzi sifatida ingliz tiliga ham, qoraqalpoq lingvomadaniyatiga ham xos: *(as) busy as a bee; brisk as a bee \\\ islegen hárre pal tabar, islegen erkek mal tabar*.

“Keraksiz, foydasiz ish bilan shug‘ullanish” konsepti qoraqalpoq frazeologiyasida quyidagi FBlar bilan ifodalangan *iyt bag‘iw; awziniń shibinin qoriw*. Qoraqalpoq madaniyatida ingliz tilidan farqli o‘laroq, dangasalik ramzi sifatida “iyt” ham bor: *as kelgende attay, is kelgende iyttey*.

Ikkala tildagi mehr-muruvvat, rahm-shafqat ko‘rsatish konseptini yuzaga keltiruvchi quyidagi FBlni ajratish mumkin: *can't (won't) say boo to a goose \\\ shibingá /peshshege/shimshiqqa azar bermes* – pashshaga ham ozor bermaydi (ushbu FBlning frazeologik ma’nosi bir xil konseptual mazmunga ega).

Qoraqalpoq tilida shaxsga nisbatan mensimaslik – shafqatsiz munosabat quyidagi FBlarda ifodalanadi: *kók ala qoyday qilip uriw, iyttey kórmew \\\ old cat* – kekxa mushuk g‘azabli yovuz kampir. Qizig‘i shundaki, ingliz tilida yovuzlik va shafqatsizlik burgut (burgut) ornitonimi yordamida qoralanadi: *eagle eyed* – g‘azabli ko‘zlar, qoraqalpoq tilida esa *burgut kózli* FB o‘tkir ko‘zli ma’nosini beradi. Inglizlar uchun g‘azab va shafqatsizlik ari (wasp), chumoli (pismire) zooleksemalari bilan ham timsollangan: *(as) angry as a wasp, (as) angry as a pismire* – g‘azablangan.

Har ikki tilda ham “hakka” leksemasi “so‘zlash” konseptini shakllantirishda qatnashadi: *chatter like a magpie \\\ hákkedey qaqudaw*. Qoraqalpoq tilida bu tushunchaning leksik xilma-xilligi bu salbiy hodisani ko‘proq emotsional xarakterlash xususiyati bilan bog‘liq.

Ingliz va qoraqalpoq tillarida “tulki” obrazi “ayyorlik” konseptini belgilash uchun asos bo‘lgan: *sly fox \\\ sum túlki*. Qisman tasodifga qaramay, bu hol ingliz va qoraqalpoq FBleri tillararo ekvivalent deyishga asos bo‘lmaydi. Qoraqalpoq tili uchun xarakterli jihat – bu ayyor odam «chumchuq» va «it» zooleksemalari orqali yuzaga kelishidir: *qartayǵan shimshiq kepekke aldanbas, buralqı iyt úrip jaranar*.

Ingliz va qoraqalpoq madaniyatida mardlik ramzi “sher” obrazi hisoblanadi: *lion-hearted; fight like a lion /tiger; as brave as a lion*. Qoraqalpoqlarda mardlik hatto “it” bilan ham ifodalangan: *iyesi qasında bolsa iyt jolbaris aladı*. Tarkibiy va tipologik o‘xshashlik jihatidan tillararo frazeologik ekvivalent ham aniqlandi: *as brave as a lion \\\ arslanday aybatlı*. Bu vaziyatda tafakkur qonunlarining universalligi kuzatiladi.

Ushbu tillarda qo‘rqoqlik periferiyasida zooleksemalarni qo‘llashda mos kelishi uchun quyidagi semantik modelni (ramka) aniqladik: “hayvon+yurak = qo‘rqoq odam”: *chicken hearted; qoyan júrek*. Faqat ingliz tili uchun xarakterli model: «hayvon + jigar = qo‘rqoq odam»: *pigeon livered*.

“Ochko‘zlik” ikkala tilda ham “it” obrazida ifodalangan: *dog in the manger*; *iyt: jazgá shıqsam súyekten qala salaryman; iyten súyek qalmas.*

Bulardan tashqari, har ikkala tilda “xo‘roz” tasviri takabburlikni belgilash uchun asos bo‘lgan. Frazeologik tasvirlarni taqqoslashda ularning assimetriyasi namoyon bo‘ladi.

Ingliz tilida «kapalak» zooleksemasi qo‘rquvni belgilash uchun asos bo‘lgan: *to have butterflies in one’s stomach*. Bu holatni tavsiflash uchun “quyon” obrazi qoraqalpoq tilida o‘zgarimas komponentga aylangan: *qoyanday qaltiraw; qolga túsken qoyanday*. Ajablanarlisi shundaki, inglizlarda qo‘rqqan odamning jismoniy holatini tavsiflash uchun «quyon» tasviri yo‘q.

Tashvish, notinchlikni tasvirlashda ayrim FBlarda majoziy komponentlarning tasodifiyligi mavjud: *a fish out of water || torga túsken baliqtay; like a cat on hot bricks || ayađı kúygen tawıqtay*. Ingliz va qoraqalpoq tillarida semantik o‘ziga xosliklari bir xil bo‘lgan, lekin leksik tarkibi bir-biriga mos kelmaydigan FBlarni ham uchratishimiz mumkin: *cats scratch at somebody’s soul — ishin iyt tirnađanday || jirtqanday*.

Ingliz tilida «ot» tasviri aqlli odam bilan bog‘liq: *horse sense* – sog‘lom fikr. Qoraqalpoqlarda aqlli odam tasvirini zooleksema orqali beruvchi FB yo‘q. Insonning aqliy qobiliyatini tavsiflovchi FBlar orasida salbiy ma‘noga ega birliklar ustunlik qiladi: «eshak», *never bray at an ass; all asses wag their ears; honey is not for the ass’s mouth; miygeshshe eshek; eshekke yasin oqıw*. Qoraqalpoqlarda ahmoq odam «tovuq»ga qiyoslangan bir qancha FBlar mavjud: *tawıq miy jegen; tawıq miy*, ammo inglizlar bu tasvirga ega emaslar.

Tajribali insonni ifodalashda zooleksemlarning sintaktik tuzilmalaridagi tasodiflar ayrim freym bo‘yicha kuzatiladi: qari + hayvon = tajribali, masalan: *the old horse, the old dog; qarı túlki; qarı qasqır*.

Xatti-harakatlar tushunchasiga bog‘liq bir xil ma‘noga ega FBlar dunyoqarashning milliy o‘ziga xosligining ko‘rsatkichi sanalgan turli xil majoziy asosga qurilgan: *dońızdan túk tartıw – even a mangy sheep is good for a little wool*. Ikkala tilda ham tillararo ekvivalentlar topilgan: *the horse has four legs and yet he (it) stumbles – tort ayaqlı at ta súrniger; the dog barks, but the caravan goes on – iyt úrer, kárwan óter; warm a snake in one’s bosom – qoyında jılan jilitıw; to lead / give someone a dog’s life – iyt kúnin basına salıw; it is the head of a fish that stinks first – baliq basınan shiriydi; he that’s afraid of wolves should keep out of the wood – qasqırdan qorqqan tođayđa barmas*. Qoraqalpoqlarda dushman «ilon» zooleksemasi bilan ifodalanadi: *qara jılan*; yaxshi munosabatni qadrlamaydigan odam haqida gapirish ham odatiy holdir: *sıylađandı sıyr bilmes, sıypađandı eshek bilmes*. Inglizlarda shu ma‘no cho‘chqa orqali berilgan: *set a pig at a table and it will put its trotters on it*.

Ingliz tilida «mastlik» konsepti «baliq» zooleksemasi orqali aks ettirilsa: *drink like a fish*; ichmaslik, ichish yoki giyohvand moddalarni iste‘mol qilishni keskin to‘xtatish «kurka» (turkey) zooleksemasi orqali beriladi: *cold turkey*. Qoraqalpoqlarda bu konsept asosida qurilgan FBlar yo‘q.


Mahorat konsepti haqida gapirganda ingliz va qoraqalpoq tillari o‘rtasida yaqin tasavvurga ega FB yo‘q. Faqatgina ingliz tiliga xos bo‘lgan narsa – bu hali yosh,

ammo allaqachon mahoratli odamni *kaptar* bilan taqqoslashdir: *little pigeon can carry great messages* – kichkina, lekin mahoratli. Qoraqalpoq tilida *qurqiltay* obrazi ushbu konseptni belgilash uchun asos bo‘ladi: *Quday sheberme, qurqiltay sheberme* – oltin qo‘llar.

Ishimizning ushbu bo‘limida yana bir qancha konseptlarini ifodalovchi har ikkala tilga xos FBlar tahliliga ham to‘xtaldik hamda “agar biz insonning ichki va tashqi dunyosini zookomponentli FB yordamida konseptualizatsiya qilinishini taqqoslasak, ularda o‘xshashliklar va farqlar mavjud” degan xulosaga keldik.

Tadqiqotimizda qoraqalpoq va ingliz tillaridagi FBlar shakllanishining umumiy yoki o‘xshash jihatlari aniqlandi. Holbuki, FBlar yuzaga kelishida qoraqalpoq va ingliz zooleksemalari turli darajadagi faollikni namoyish etadi, shu asnoda quyidagicha kvantitativ tahlil qilganmiz:

Zooleksemalarning frazeologik faollik darajasi



2-rasm. Ingliz va qoraqalpoq tillari zooleksemalarining faollik darajasi.

Shunday qilib, qoraqalpoq va ingliz tillarida “it” zooleksemasi eng yuqori frazeologik faollikni namoyish etadi: “iyt” leksemasi 106 FB shakllanishida ishtirok etadi, bu 10.9% ga to‘g‘ri keladi, “dog” leksemasi 82 FBda ishtirok etadi, bu 13.3% ga to‘g‘ri keladi. Qoraqalpoq tilida ikkinchi o‘rinni 98 FB yasalishida ishtirok etadigan “at” (ot) leksemasi egallaydi (10.04%) va ingliz tilida “horse” (ot) uchinchi o‘rinda – 48 FB hosil bo‘lishida qatnashadi (7.81%). Qizig‘i shundaki, ingliz tilida ikkinchi o‘rinni 62 FB (10.1%) shakllanishida ishtirok etadigan “mushuk” (mushuk) leksemasi egallaydi. Qoraqalpoq tilida uchinchi o‘rinni 54 FB uchun komponent bo‘lgan “bóri” (bo‘ri) leksemasi egallaydi; to‘rtinchi o‘rinda 37 FB tarkibiga kiruvchi “túye” (tuya) va “eshak” (eshak) leksemalari joylashgan bo‘lsa, ingliz tilida “pig” (cho‘chqa) va “bird” (qush) zoonimlari 28 FB tarkibida ishtirok etadi. Qoraqalpoq tilida beshinchi o‘rinni 34 FB tarkibi sanaluvchi “ógiz” (buqa) va “jilan” (ilon) zooleksemalari egallaydi (3.06%), ingliz tilida “fish” (balıq) zooleksemasi 22 FB shakllanishida ishtirok etadi (3.58%).

O‘zining xatti-harakatlarini tavsiflashga intilib, odam o‘ziga eng yaqin bo‘lgan narsalar bilan taqqoslashga murojaat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, chog‘ishtirilayotgan tillarda ekvivalent (yoki qisman ekvivalent) FBlar shakllanishining asosiy yuki uy hayvonlarini ifodalovchi leksemalarga to‘g‘ri keladi.

XULOSA

1. Til o‘z tabiati va mohiyatiga ko‘ra antroposentrik, etnosentrik, ekosentrik, sotsiosentrik xususiyatlarga ega bo‘lib, unda milliy o‘ziga xoslik, mentalitet, ong va dunyoqarash qadriyatlari, ona tilida so‘zlashuvchilarning madaniy kodlari namoyon bo‘ladi. Bu asrlar davomida yashab kelayotgan jamiyat, millat va shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni verbal ifodalaydigan belgilar sifatida namoyon bo‘ladigan FB tizimida ham aks etadi. Bizning tadqiqotimiz to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan va berilgan barcha ekstralingvistik omillar bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi “inson” tushunchasining ma’nosi va mazmuniga yo‘naltirilgan. Ular o‘rganilayotgan ikkala tilning FBlarining tarkibiy semantik va lingvistik-madaniy toifalarining mazmunida aks etadi.

2. Garchi ingliz va qoraqalpoq tilshunosligida FBlar bo‘yicha juda ko‘p ish olib borilgan bo‘lsa ham, zookomponentli FBni o‘rganish yuzasidan ilmiy ishlar birinchi marta amalga oshirildi va zookomponentli FBlar lingvomadaniy xususiyatlari bilan ajralib turadigan 10 ta tematik guruh va semantik tarkibga ajratildi.

3. Yevropa va Osiyo mamlakatlarining dunyoqarashi, madaniyati va turmush tarzining o‘ziga xos xususiyatlari, geografik joylashuvi va tarixiy rivojlanishidagi farq zookomponentli FBda yorqin aks etadi. Bunday FBlar har ikkala til leksik fondida mavjud, ammo yetarlicha o‘zgachaliklarga ega. Xususan, ingliz frazeologik lugatida *jayin* (laqqa), *aydarxha* (ajdaho), *shağala* (chag‘alay), *torgay* (to‘rg‘ay), *suylin* (tustovuq), *turımtay* (qirg‘ıy), *sunqar* (sokol), *atshók* (kakku), *bódene* (bedana), *qurqiltay* (remez) zooleksemlari bilan shakllangan FBlar yo‘q. Qoraqalpoq frazeologik fondida esa «*kenguru*», «*karkidon*», «*zebra*», «*leopard*», «*pantera*», «*tuyaqush*», «*kurka*», «*laylak*», «*dengiz cho‘chqasi*», «*olmaxon*», «*krot*», «*ko‘rshapalak*», «*kaltakesak*», «*qisqichbaqa*», «*omar*» zookomponentli FB topilmadi.

4. Qoraqalpoq tilining FBlari, asosan, morfologik jihatdan o‘zgaruvchan modellarga ega bo‘lsa, ingliz tilining frazeologizmlari morfologik o‘zgarimasligi bilan ajralib turadi, bu ingliz tilining analitik tuzilishi bilan bog‘liq, albatta.

5. Ingliz va qoraqalpoq tillarida zookomponentli FB semantik tuzilishdagi o‘xshashlik va farqlarga ega. Jumladan, qoraqalpoq tilida zookomponentga ega bo‘lgan FBlarning aksariyati predikativ, ingliz tilida esa substantivdir; qoraqalpoq tilida adyektiv FBlar, ingliz tilida adverbial xarakterdagi FBlar kamroq.

6. Ingliz tilida joy, vaqt, sabab, maqsad kabilarning turli ma’nolari predloglar yordamida, qoraqalpoq tilida esa turli xil kelishik shakllari yoki otlarning postloglar bilan birikmasi orqali beriladi. Shu bilan birga, ingliz tilida ko‘plab FBlar predlogli tuzilmalar bilan ifodalanadi: *a bird in the hand, an ass with two panniers*. Inglizcha predlogli tuzilmalarga o‘xshash FBlarning yo‘qligi qoraqalpoq tilida ayni funksiyadagi old qoshimchaning yo‘qligi bilan izohlanadi.

7. Chog‘ishtirilayotgan tillardagi zookomponentli fe‘lli FBlar guruhida qoraqalpoq FBlarning o‘ziga xos xususiyati barcha tarkibiy turlarda fe‘lni oxirgi komponent sifatida ishlatilishidir. Qoraqalpoq tilida «ot + ot + fe‘l» modeli asosida qurilgan FBlar ancha sermahsuldir. Bundan tashqari, birinchi komponent – ot ham, ikkinchi komponent ham turli xil kelishik shakllarida namoyon bo‘lishi mumkin: *iyt azaptı kóriw, sirkesi suw kótermey, julqısı tawğa shıǵıw*. Ushbu tuzilmali FBlari juda sermahsul va ko‘p va bu qoraqalpoq tilidagi turli xil kelishik shakllarining ko‘pligi

bilan izohlanadi. Ingliz tilidagi predikativ FBlarda fe'l har doim prepozitsiyada bo'ladi, qoraqalpoq tilida esa aksincha.

8. Tahlil qilinayotgan tillarning zookomponentli FBlarining tarkibiy-grammatik tuzilishi bir-biridan farq qiladi, ammo ularning semantik aspektida o'xshashliklar ham mavjud. Kamdan kam holatlarda ikkala tilda bir xil hayvonlarning nomlarini o'z ichiga olgan, bir xil bo'yoqdorlikka ega bo'lgan FBlari uchraydi. Bundan tashqari, bir xil ma'noga ega, ammo turli zookomponentlarni o'z ichiga olgan bir xil bo'yoqdorlikka ega qator ingliz va qoraqalpoq obrazli iboralari ham mavjud.

9. Ushbu tillardagi ko'pchilik zookomponentli FBlar insonning salbiy fazilatlarini tavsiflaydi. Ingliz lingvomadaniyatida insonning eng ko'p qoralanadigan jihatlari dangasalik, sergaplik, ochko'zlik va qo'pollik bo'lsa, qoraqalpoq tilida qo'rqqoqlik, takabburlik va ahmoqlikdir.

10. Insonning ijobiy fazilatlarini tavsiflovchi FBlar salbiy baholovchi FBlarga nisbatan kam. Ingliz va qoraqalpoq madaniyatlarida olqishlanadigan bir qator ijobiy fazilatlar aniqlandi. Inglizlarda mehnatsevarlik, rahm-shafqat, mehribonlik, sabr-toqat kabi fazilatlarga ega bo'lgan odamlarga nisbatan katta ijobiy fikr bildiriladi. Qoraqalpoqlar orasida eng hurmatga sazovor fazilatlar birdamlik, jasorat, ehtiyotkorlik hisoblanadi. Ikkala til madaniyati uchun ham universal bo'lgan ijobiy fazilatlar mavjud.

11. Ingliz tilidagi zookomponentli FBlari orasida spirtli ichimliklarni iste'mol qiladigan yoki qattiq mast bo'lgan odamlarni tavsiflaydigan iboralar anchagina. Bunday juda mast odamni tavsiflovchi FBlar semalari «*pig*» (cho'chqa), «*rat*» (kalamush), «*snake*» (ilon), «*dog*» (it), «*fish*» (baliq) zooleksemalari orqali shakllantiriladi. «*Turkey*» (kurka) komponentli FB aroq yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilishni to'xtatgan odamni tavsiflaydi. Qoraqalpoq tilidagi zooleksemali FBlari orasida odamlarning bunday yomon odatlarini tavsiflovchi iboralar aniqlanmadi.

12. Zookomponentli FBlardan kommunikativ jarayonda faol foydalaniladi. Bu shuni ko'rsatadiki, tillarni qiyosiy o'rganish, ularning ba'zi jihatlardagi o'xshashliklari va farqlarini ochib berish dolzarb masalaga aylanib ulgurgan. Binobarin, tillarning frazeologik tizimlarini qiyosiy o'rganish frazeologiyaning umumiy nazariy muammolarini ishlab chiqishga, chog'ishtirilayotgan tillarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishga yordam beradi. Bunday tadqiqotlar FBlarga xos lingvistik nazariyalarning asoslarini tushuntirishga ko'maklashadi va ingliz tilidan qoraqalpoq tiliga, qoraqalpoq tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonini mukammallashtiradi.

13. Ingliz va qoraqalpoq tillarining zookomponentli FBlaridagi juda ko'p o'xshashliklar inson tafakkurining universalligi va insoniyat tajribasining umumiyliги natijasidir, farqlar esa inglizlar va qoraqalpoqlar o'ziga xos mentalitet hamda o'z-o'zini anglash xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bu bizga, bir tomondan, universal xususiyatlarni aniqlashga, boshqa tomondan, tahlil qilinayotgan tillarning bir qator differensial qirralarini, ularning etnik-madaniy o'ziga xosliklarni aniqlashga imkon berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.2019.Fil.55.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

САГАТОВА ЗАРИМА БАХТИЯРОВНА

**ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ С КОМПОНЕНТОМ –
ЗООНИМОМ В АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ:
АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЙ АСПЕКТ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ургенч – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.PhD/Fil3562.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) и размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале “ZiyoNet” по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Генжемурат Тлеумуратов
кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Альниязов Айтмурат Исмаилович
доктор филологических наук, профессор

Юлдашев Дониёр Тахирович
доктор филологических наук, доцент

Ведущая организация:

Нукусский Педагогический Институт имени Ажинияза

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 г. в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 по присуждению ученой степени при Ургенчском государственном университете (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Хамида Алимджана, дом № 14. Тел: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (загегстрирована за № _____). (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Хамида Алимджана, дом № 14. Тел: (99862) 224-67-00)

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.
(Реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2024 года)

Б.Абдуллаев
Вр.и.о. председателя Научного совета по присуждению ученой степени, доктор физико-математических наук, профессор

С.С.Атажанов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученой степени, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

А.Д.Уразбаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени, доктор филологических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике приоритетное значение имеют практические работы, направленные на раскрытие природы фразеологических единиц, демонстрирующих единство языка, речи и мышления, их лексико-семантических особенностей, а также принципов объяснения в словарях отдельных языков. В этом контексте освещение лингвокультурологических и когнитивных характеристик фразем, составляющих резервуар духовного наследия определённого народа, анализ трансформации словосочетаний в них и развитие стилевых значений, отличающие друг от друга, обобщение психологического, физиологического, культурно-просветительского и лингвокультурологического опыта, отражающегося в языковых отношениях, служит определению перспективных направлений данной теоретической доктрины. В настоящее время сравнительный анализ возможностей использования фразеологических единиц в различных языках и уровня их выразительности с антропоцентрической точки зрения считается актуальной задачей для науки о языкознании.

В мировой лингвистике с 70-х годов XX века начался систематический подход к теории фразеологии, и по этой теме появилось множество научных исследований. В них в качестве приоритетной задачи было определено сравнительно-типологическое изучение состава фразеологизмов и определение богатых функциональных и когнитивных возможностей фразеологических систем различных языков, а также разработка новых методов исследования фразеологизмов, функциональное освещение процесса фразеологизации. Сегодня анализ данного явления на основе современных парадигм стал актуальной задачей. Кроме того, в современной лингвистике исследование многих аспектов фразеологических единиц на основе различных подходов не только помогло раскрыть специфические особенности языковых и речевых единиц, но и способствовало выявлению основных механизмов понимания соответствия формы и содержания в фразеологизмах, внутреннего и внешнего мира человека, его действий, взаимоотношений людей в обществе. В этом контексте, безусловно, важную роль играют антропоцентрические характеристики, проявляющиеся в лингвистических особенностях зоолексем, входящих в состав фразеологизмов.

В исследовании каракалпакского языкознания также созданы значительные теоретико-практические работы и словари, касающиеся теоретических основ фразеологических и паремиологических единиц, когнитивных и лингвокультурологических аспектов их исследования, а также особенностей анализа зоонимов и зоокомпонентов с лингвистической точки зрения. Однако в большинстве этих работ рассматривается лишь формирование и использование фразем каракалпакского языка. В настоящее время существует необходимость когнитивного и лингвокультурологического анализа фразеологических единиц с зоокомпонентами в английском и каракалпакском языках в сопоставительной перспективе, которые

гетерогенны, типологически и генетически не связаны друг с другом. Это исследование возникло именно из-за этой необходимости, а также играет важную роль в выполнении задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева о внедрении «передовых стандартов высшего образования, в частности поэтапный переход от образования, учебные программы которого направлены на получение теоретических знаний, к системе образования, направленной на формирование практических навыков, исходя из международного опыта»⁴¹.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков» от 10 декабря 2012 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года и в других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике начиная с прошлого века большой интерес вызывают когнитивные и лингвистические особенности языковых единиц, а антропоцентрические образные выражения привлекают исследователей. В частности, Д.А.Тишкина путем сопоставительного анализа зоокомпонентных фразем в английском и русском языках выявляла сходства и различия между устойчивыми выражениями двух языков⁴². Л.Р.Сакаева в своих исследованиях на основе антропоцентрической

⁴¹ Указ президента Республики Узбекистан за № 5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 г. <https://lex.uz/docs/4545887>

парадигмы проводила сравнительно-сопоставительный анализ фразем на материале русского, английского, татарского и таджикского языков, изучала структурно-грамматические и семантические особенности фразем в этих четырех языках⁴³. Английские исследователи Е. Milburn и Т. Worren проанализировали фраземы, связанные с названиями животных, сопоставляя их прямое и переносное значения⁴⁴.

Когнитивный и лингвокультурологический аспекты исследования языковых систем, уровней и единиц содержится также в научных трудах Д. У. Ашуровой, Т. А. Бушуй, А. Э. Маматова, Г. С. Насруллаевой, Ш. С. Сафарова, Д. С. Худайбергеновой, Д. Т. Юлдашева, Ш. Абдиназимова и Х. Э. Толибаева, Б. Т. Юсуповой, Г. Б. Айназаровой, Г. К. Кыдырбаевой и других отечественных учёных-лингвистов⁴⁵. Фразеологические и паремиологические единицы каракалпакского языка исследовались такими известными лингвистами, как Ж. Ешбаев, С. Т. Наурызбаева, Д. С. Насыров, А. Бекбергенов, А. Х. Жаримбетов, К. А. Пахратдинов, К. И. Бекниязов, А. К. Пирниязова, К. М. Сарсенбаев и другими, многие из которых составили соответствующие словари⁴⁶.

Лингвистические особенности зоонимов и зоокомпонентов в некоторой степени изучены отечественными учеными. В частности, Г. Э. Хакимова исследовала структурные и семантические особенности английских ФЕ с компонентом-зоонимом⁴⁷, Н. Р. Нишоновой изучены лексемы с архисемой «животное» в узбекском языке⁴⁸, С. Б. Абдуллаевой на материале английского и узбекского языков исследованы лингвопрагматические особенности

⁴² Тишкина Д. А. Фразеологические единицы с компонентом-зоонимом в английском и русском языках: сопоставительный анализ: дисс. ... канд. филол. наук / Д. А. Тишкина. – Казань, 2008. – 219 с.

⁴³ Сакаева Л. Р. Сопоставительный анализ фразеологических единиц антропоцентрической направленности (на материале русского, английского, татарского и таджикского языков): автореф. дисс. ... д-ра филол. наук / Л. Р. Сакаева. - Казань, 2008. — 227 с.

⁴⁴ Milburn Evelyn, Warren Tessa. Idioms shows effects of meaning relatedness and dominance similar to those seen for ambiguous words// psychonomic bulletin and review. – Springer, 2019. – Pp. 591-598.

